



O'RTA VA UZOQ MUDDATLI DAVLAT QARZI VA UNI BOSHQARISHDA XALQARO TAJRIBALAR: AQSH VA XITOIY TAJRIBASI, TAHLIL VA ILMIY TAVSIYALAR

MEDIUM- AND LONG-TERM PUBLIC DEBT MANAGEMENT AND INTERNATIONAL EXPERIENCES: ANALYSIS AND SCIENTIFIC RECOMMENDATIONS BASED ON THE CASES OF THE UNITED STATES AND CHINA

¹**Abduraxmonova Feruzabonu**
Abduraxmon qizi

¹*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi mustaqil izlanuvchisi.*
ORCID: 0009-0003-8755-8575, **G-mail:** feruzbonu199120@gmail.com

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Ushbu maqolada davlat qarzini boshqarishda xalqaro tajribalarni o'rganishning ahamiyati, dunyo mamlakatlarining davlat qarzining tahlili, dunyodagi ko'pgina davlatlar budjet defitsitini moliyalashtirish va strategik maqsadlarni amalga oshirish, iqtisodiy va moliyaviy o'zgarishlarni belgilash maqsadida qarz olishga murojaat qilishi, hozirgi globallashuv davrida davlat qarzi bir tomondan mamlakat, ikkinchi tomondan uning rezidentlari bo'lgan shaxslar, norezidentlar hamda jahon moliya tashkilotlari o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar vositasiga aylangani, davlat qarzining haddan tashqari oshib ketishi va to'g'ri boshqarilmasligi davlatning nafaqat moliyaviy barqarorligiga xavf tug'dirishi, shu bilan birga uning milliy strategik rivojlanish bosqichlariga jiddiy ta'sir o'tkazishi mumkinligi haqidagi muallifning qarashlari va yondashuvlari keltirilgan.

Eng. - This article explores the importance of studying international experiences in managing public debt, provides an analysis of public debt in different countries, and examines how many nations resort to borrowing to finance budget deficits, achieve strategic goals, and manage economic and financial changes. It highlights that in the current era of globalization, public debt has become a financial instrument that connects the state, its residents, non-residents, and international financial institutions. The article also emphasizes that excessive growth and mismanagement of public debt may threaten not only a country's financial stability but also significantly affect its national strategic development stages. The author's perspectives and approaches on these issues are presented.

Kalit so'zlar:
Keywords:

❖ *globallashuv, transformatsiya, o'rta va uzoq muddatli davlat qarzi, tashqi qarz, boshqarish, xalqaro tajriba, tahlil, qarzi ko'rsatkichlari, boshqarish strategiyasi, obligatsiya, xavfsiz investitsiya, barqarorlik, ishonchlilik, monetar siyosat, YaIM.*

❖ *globalization, transformation, medium- and long-term public debt, external debt, management, international experience, analysis, debt indicators, management strategy, bonds, safe investment, stability, reliability, monetary policy, GDP.*

Kirish.

Xalqaro Valyuta Jamg'armasining (IMF) Jahon qarzi ma'lumotlar bazasining oxirgi ma'lumotlariga ko'ra, umumiy hisobda dunyo davlatlarining qarzi o'tgan yili deyarli o'zgarmasdan qolgan holda, jahon yalpi ichki mahsulotining (YaIM) 235 foizidan yuqori darajada qayd etilgan.

Xususiy qarz YaIMning 143 foizidan kam darajani tashkil etib, 2015-yildan buyon eng past ko'rsatkich sifatida qayd etildi. Bu aholi qarzdorligining kamayishi va nomoliyaviy korporativ sektor qarzining deyarli o'zgarmaganini ifodalaydi, shuningdek, davlat qarzi qariyb YaIMning 93 foiziga yetgan. Bu ko'rsatkich hukumatlar, biznes subyektlari va aholining qarzdorlik hajmi hamda tarkibi bo'yicha o'tkazilgan yillik tahlil natijalari asosida aniqlangan.

Dollar hisobida umumiy qarz biroz oshib, 251 trln. AQSh dollariga yetdi. Shundan davlat qarzi – 99,2 trln. dollar, xususiy qarz esa – 151,8 trln. dollar miqdorini tashkil etgan [1].

Global o'rtacha ko'rsatkichlar mamlakatlar va daromad guruhlari o'rtasidagi jiddiy farqlarni to'liq aks ettirmaydi. IMFning 2025-yil aprel oyidagi Fiscal Monitor [2] hisobotiga muvofiq, AQSh va Xitoy jahon qarzi dinamikasini shakllantirishda yetakchi rol o'ynamoqda. Biroq rivojlangan hamda rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'pchiligida davlat qarzi va budget defitsiti ko'rsatkichlari tarixiy me'yorlarga nisbatan yuqori darajada saqlanib qolmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning davlat tashqi qarzlari hamda ularni samarali boshqarish haqidagi tushuncha, uning zarurligi va bu boradagi ijobiy hamda salbiy holatlar yuzasidan iqtisodchi olimlar tomonidan turlicha yondashuvlar mavjud.

Yetakchi iqtisodchi olimlardan Karmen Reynxart va Kenneth Rogoff "Qarz yig'ish iqtisodiy inqirozlar davrida barqarorlikni

ta'minlash uchun zarur vosita bo'lishi mumkin, biroq qarzning davomiyligi doimo muhim ahamiyatga ega" degan, shuningdek "Agar davlat qarzi samarali boshqarilsa, iqtisodiy bo'ronlarni yengil o'tkazishi mumkin, ammo yomon boshqarilgan qarz ko'pincha iqtisodiy falokat yoki turg'unlikka olib keladi [3]" degan fikrlarni ilgari surib, har qanday vosita oqilona ishlatilsa samara beradi, mamlakat va uning aholisi foydasiga iqtisodiy imkoniyatlar yaratadi, deb hisoblaganlar. Shuningdek, Reynxart va Rogoff davlat qarzining o'sishi hamda moliyaviy inqirozlar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatib, qarzning iqtisodiy o'sishga ta'sirini tahlil qilganlar. Ular 66 mamlakatning 800 yillik ma'lumotlarini o'rganib, davlat qarzi/YaIM nisbatining 90 foizdan oshganda iqtisodiy o'sish sezilarli darajada sekinlashishini aniqlagan. Olimlar davlat qarzini inqirozlar uchun mo'ljallangan moliyaviy vosita sifatida tasvirlar ekan, davlatlarning qarz siyosati ko'pincha uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni xavf ostiga qo'yishi mumkinligini ta'kidlaydilar. Ular davlat qarzlari tarixining siklik xususiyatini, inqirozdan keyingi tiklanish murakkabligini va qarzning milliy siyosatdagi dolzarbligini ko'rsatib o'tganlar.

John Maynard Keynes esa "Davlat qarzi to'liq bandlikni saqlash uchun zarurdir. Hukumatlar inqiroz davrida iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish maqsadida qarz olish va sarflashga tayyor bo'lishlari kerak [4]" degan fikrni ilgari surgan. Keynes davlat qarzini iqtisodiy talabni boshqarish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim vosita sifatida ko'rgan. U iqtisodiy inqiroz davrida davlatning faol moliyaviy aralashuvi zarurligini, qarz olish orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish hamda ish o'rinlari yaratish mumkinligini asoslagan. Keynes bu jarayonni davlat xarajatlari oshishi orqali yalpi ichki mahsulotning ko'payishi bilan izohlagan.

Paul Robin Krugman esa davlat qarzini iqtisodiy inqiroz davrida tiklanish uchun zarur vosita sifatida ta'kidlaydi. U "Iqtisodiy

turg'unlik va past foiz stavkalari sharoitida davlat qarzining ortishi xavfli emas, balki iqtisodiy o'sishni tiklash va ish o'rinlari yaratish uchun zarur choradir [5]" deya qayd etadi. Krugman qattiq iqtisodiy tejamkorlik siyosatini tanqid qilib, davlat xarajatlari iqtisodiy talabni oshirish uchun muhimligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, hukumatlar qarz olish orqali iqtisodiy faollikni tiklashlari, ish o'rinlarini ko'paytirishlari va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashlari lozim. Krugman fikricha, qattiq tejamkorlik siyosati inqirozni yanada chuqurlashtiradi, shuning uchun qarzni qisqartirishdan ko'ra, uni iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish vositasi sifatida ishlatish ma'qul.

Yuqorida keltirilgan iqtisodchilar davlat qarzining iqtisodiy tizimdagi o'rni va ahamiyatini turli nuqtayi nazardan tahlil qilganlar. Ularning fikriga ko'ra, davlat qarzi iqtisodiy o'sish va barqarorlikni ta'minlash uchun zarur vosita, ayniqsa inqiroz davrlarida. Biroq, qarzning haddan tashqari oshib ketishi moliyaviy barqarorlikka xavf tug'dirishi mumkin, shu sababli uni samarali boshqarish zarur.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar ham bu borada o'z qarashlarini bildirganlar. Jumladan, O.S. Komolov va X.X. Imomov "Davlat qarzlarini boshqarish" nomli darsligida shunday yozadi: "Davlat qarzi nazariyasi, avvalo, qarzning iqtisodiy oqibatlarini o'rganadi. Ushbu oqibatlarni ikki nuqtayi nazardan ko'rib chiqamiz. Keng tarqalgan fikrlarga ko'ra, qarz yomon narsa, iqtisodiyotga og'ir yuk. Boshqa qarashlarga ko'ra, davlat soliqlarni oshiradimi yoki qarzga pul oladimi, iqtisodiyot uchun "baribir". Bunday nuqtayi nazar rikardochalik ekvivalentligi deb nomlanadi. Bu nazariya ikki asosiy g'oya o'rtasida chiziq chizadi: birinchisi – qarz yuki g'oyasi. Qarz yuki unga xizmat ko'rsatish uchun soliqlar to'laydigan aholining turmush darajasini pasaytiradi. Ikkinchi g'oya – davlat xususiy qarz oluvchilarni kredit bozoridan siqib chiqaradi (buni fiskal siqib chiqarish deb

ataymiz). "Qarz – bu yomon" deganda, e'tibor asosan fiskal siqib chiqarishga qaratiladi. "Qarz iqtisodiyot uchun baribir" deganda esa, u kelajak avlodga yuk bo'lmasligi nazarda tutiladi [6]".

Shuningdek, iqtisodchi olimlarimizdan A.A. Shernayev va O.S. Komolov shunday yozadi: "Agar davlat qimmatli qog'ozlarini sotib oluvchilar hech narsa yo'qotmasalar, unda qarz yuki kimning zimmasiga tushadi?. Bu savolga javob berishdan oldin qarz masalasiga, klassik qarashlar evolyutsiyasiga nazar tashlash lozim. Balki davlat kapitalni faqat sarflab yubormasdan, qarzga olingan mablag'larni jamiyat ravnaqi uchun ham sarflashga qodirdir? [7]" degan fikrlarni ask ettiradi. Bundan tashqari, D.X. Suyunovning fikricha [8], davlatning olgan tashqi yoki ichki qarzi agar olingan mablag'lar maqsadli va samarali sarflansa, u holda bunday qarz ijobiy baholanishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqola ishidagi muammoni o'rganish uchun tizimli tahlil, ilmiy mushohada, analiz va sintez, induksiya va deduksiya kabi usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Rivojlangan iqtisodiyotlarga ega mintaqalarda davlat qarzi hajmi nisbatan yuqori bo'lib, bu ularning moliyaviy bozorlar va kapital oqimlariga keng kirish imkoniyatiga ega ekanini ko'rsatadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa qarz hajmining o'sishi ko'proq infratuzilma loyihalari va ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish bilan bog'liq. Shu bilan birga, ayrim mintaqalarda tashqi qarzning ortishi iqtisodiy xavfsizlikka tahdid solayotgan omil sifatida baholanmoqda. Umuman olganda, global miqyosda davlat qarzining bunday darajada o'sishi fiskal barqarorlikni saqlash masalasini xalqaro moliyaviy tizim oldidagi eng muhim vazifalardan biriga aylantirmoqda.

Quyidagi diagrammada turli mintaqalarning davlat qarzlari hajmi trln.

AQSh dollari ko'inishida ifodalangan. Ma'lumotlar xalqaro moliyaviy institutlar hisobotlari asosida shakllantirilgan bo'lib, ular har bir mintaqaning fiskal barqarorligi va qarz yukini solishtirish imkonini beradi. Grafik

global qarz dinamikasining geografik taqsimotini ko'rsatadi hamda qaysi mintaqalarda davlat qarzi yuqori darajada ekanini aniqlashga yordam beradi (1-rasm).



1-rasm. Mintaqalar bo'yicha jahon davlat qarzi [3] (trln. AQSh dollari)

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, eng katta davlat qarzi hajmi Shimoliy Amerika va Osiyo mamlakatlariga to'g'ri keladi. Yevropa mamlakatlari ham yuqori qarz ko'rsatkichlariga ega bo'lib, ularning iqtisodiy salohiyati bilan mutanosib tarzda shakllangan. Lotin Amerikasi va Afrika mintaqalarida qarz hajmi nisbatan past bo'lsa-da, ularning YaIMga nisbati yuqori darajada qolmoqda. Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo mintaqalarida esa tashqi qarz asosan energetika sohasiga yo'naltirilgan. Umuman olganda, mintaqalar kesimida jahon davlat qarzi notekis taqsimlangan bo'lib, bu global iqtisodiy barqarorlikka bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

AQShning Kongress Budjet Idorasi (Congressional Budget Office — CBO) ma'lumotlariga ko'ra [9], AQSh milliy qarzi hozirda deyarli mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmiga teng bo'lib, yaqin to'rt yil ichida iqtisodiyotga nisbatan rekord darajadan oshib ketishi prognoz qilinmoqda. Bu holat davlat xarajatlari va daromadlari o'rtasidagi

struktural nomutanosiblik oqibatida yuzaga kelmoqda.

CBOning 2025-yil mart oyidagi uzoq muddatli prognozlariga ko'ra, federal xarajatlar YaIMga nisbatan 2025-yildagi 23,3 foizdan 2055-yilda 26,6 foizgacha o'sishi kutilmoqda. Shu bilan birga, davlat daromadlari ham o'sishi mumkin, ammo jadalligi pastroq bo'lib qoladi — 2025-yildagi 17,1 foizdan 2055-yilda 19,3 foizgacha. Natijada, budjet defitsiti keyingi o'nlab yillarda barqaror o'sib boradi.

Milliy qarz hajmining o'sishi quyidagi to'rt asosiy omilga bog'liq:

1. Aholining qarishi. Keyingi 25 yil mobaynida federal xarajatlar o'sishining eng muhim omili aholining tez sur'atda qarishidir. Pensiya yoshidagi (65 yoshdan yuqori) aholining soni ishchi yoshdagilarga nisbatan ancha tez o'smoqda, bu esa nafaqaxo'rlarga yo'naltirilgan ijtimoiy dasturlar xarajatlarini ko'paytirmoqda.

2. Sog'liqni saqlash xarajatlarining ortishi. Sog'liqni saqlash tizimi xarajatlarining

o'sishi ham milliy qarzni asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biridir. CBO ma'lumotlariga ko'ra, federal hukumatning Medicare va Medicaid dasturlari bo'yicha xarajatlari YaIMning 2025-yildagi 5,8 foizidan 2055-yilda 8,1 foizgacha o'sishi kutilmoqda. Shu bilan birga, Medicare & Medicaid Services markazlari hisob-kitobiga ko'ra, sog'liqni saqlash sohasiga umumiy xarajatlar iqtisodiyotning beshdan bir qismini tashkil etadi. AQSh sog'liqni saqlash tizimi kishi boshiga to'g'ri keladigan xarajatlar bo'yicha dunyodagi eng qimmat tizimlardan biri bo'lsa-da, mamlakatdagi sog'lomlik ko'rsatkichlari ko'p hollarda rivojlangan mamlakatlarnikidan yuqori emas, ba'zi hollarda esa pastroqdir.

3. Foiz xarajatlarning o'sishi. Milliy qarz ortishi va foiz stavkalari ko'tarilishi natijasida davlat budjeti tobora katta qismini qarz foizlarini to'lashga sarflamoqda. Bu holat

iqtisodiyotga investitsiya kiritish imkoniyatlarini qisqartiradi. Foiz xarajatlari hozirda federal budjetning eng tez o'suvchi moddasiga aylangan bo'lib, CBO bahosiga ko'ra, keyingi o'n yil ichida ularning umumiy hajmi 13,8 trillion dollarga yetadi.

4. Yetarli darajadagi daromad manbalari yetishmasligi. AQSh soliq tizimi amaldagi xarajatlar hajmini qoplash uchun yetarli daromad keltirmaydi. Mavjud soliq kodeksi juda murakkab, noqulay va samarasiz bo'lib, undagi turli imtiyozlar ("soliq tanaffuslari") ayrim guruhlar va faoliyat turlariga teng bo'lmagan ustunliklar yaratadi. 2024-yilda bunday soliq imtiyozlarining umumiy qiymati 1,9 trillion dollarni tashkil etgan. Bu holat nafaqat defitsitni oshiradi, balki bozor samaradorligi va iqtisodiy o'sishga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

1-jadval

AQShning asosiy sog'liqni saqlash dasturlari va ijtimoiy ta'minot (Social Security) bo'yicha xarajatlar (foizda) [9]

Yil	Ijtimoiy ta'minot va Medicare	Boshqa foizsiz xarajatlar	Sof foiz	Izoh
2010	7.0	15.0	1.0	Amaldagi
2015	7.0	13.0	1.5	Amaldagi
2020	8.0	21.0	1.5	Amaldagi
2025	8.5	12.0	3.0	Amaldagi / O'tish davri
2030	9.0	11.0	3.5	Prognoz qilingan
2035	9.5	10.5	4.0	Prognoz qilingan
2040	10.0	10.3	4.5	Prognoz qilingan
2045	10.5	10.2	5.0	Prognoz qilingan
2050	11.0	10.1	5.5	Prognoz qilingan
2055	11.0	10.0	6.0	Prognoz qilingan

Barqaror fiskal siyosat iqtisodiy o'sish va milliy farovonlikning asosiy shartidir. Mamlakatni uzoq muddatli barqaror fiskal yo'nalishga olib kirish iqtisodiy o'sish, yangi imkoniyatlar va umumiy farovonlik uchun ijobiy muhit yaratadi. Bunday siyosat orqali mamlakat kapitalga kirish imkoniyatini oshiradi, davlat va xususiy investitsiyalar uchun kattaroq resurslar yaratiladi, ishonchli moliyaviy muhit shakllanadi va ijtimoiy himoya tizimi mustahkamlanadi. Shu bilan birga, agar

siyosatchilar fiskal muammolarni hal etishda kerakli choralar ko'rmasalar, natijada iqtisodiy muhit zaiflashadi, bozor ishtirokchilari ishonchi pasayadi, investitsiyalar qisqaradi, foiz xarajatlari kelajakdagi iqtisodiy imkoniyatlarni "so'rib oladi" va mamlakatni yangi iqtisodiy inqiroz xatarlariga duch keltiradi. Uzoq muddatli fiskal nomutanosiblik bartaraf etilmasa, AQSh iqtisodiyotining istiqboldagi o'sishi cheklanib, fuqarolar uchun iqtisodiy imkoniyatlar qisqaradi hamda

davlatning kelajakdagi moliyaviy inqirozlarga javob berish qobiliyati susayadi.

Xitoy iqtisodiyoti jahondagi eng katta iqtisodiy tizimlardan biri bo'lib, mamlakatning davlat qarzi va uning moliyaviy barqarorligi xalqaro tahlilchilar va siyosatchilar diqqat markazida turadi. Davlat qarzi YaIMga nisbati (debt-to-GDP ratio) ko'p hollarda mamlakatning qarz to'lash qobiliyati va moliyaviy salomatligining muhim ko'rsatkichlaridan biri sifatida qoraladi. 2024-yilda Xitoy uchun davlat qarzi YaIMga nisbati 88,30 foizni tashkil etgan, bu ko'rsatkich 1995–2024-yillar davomida eng yuqori rekord darajasiga teng bo'lgan.

Xitoy Moliya vaziri Lan Fuan ma'lum qilishicha, mamlakatning davlat qarzi darajasi oqilona me'yor doirasida bo'lib, qarzga oid xavf-xatarlar boshqarib bo'ladigan va nazorat ostidagi holatda turibdi [10].

Lan Fuan ta'kidlashicha, 2024-yil yakunida Xitoyning davlat qarzi nisbati yalpi ichki mahsulotga nisbatan 68,7 foizni tashkil etgan. Bu haqda u mamlakatning "14-besh yillik reja" (2021–2025-yillar) doirasidagi fiskal islohotlarga bag'ishlangan matbuot anjumanida ma'lum qilgan.

O'tgan 2025-yil yakunida Xitoy davlat qarzining umumiy hajmi 92,6 trln. yuan (taxminan 13,04 trln. AQSh dollari)ni tashkil etgan.

Shu jumladan:

- ❖ markaziy hukumat qarzi — 34,6 trln. yuan;
- ❖ qonun bilan belgilangan mahalliy hukumat qarzlari — 47,5 trln. yuan;
- ❖ yashirin mahalliy hukumat qarzlari — 10,5 trln. yuan miqdorida bo'lgan.

Xitoyning davlat qarzi YaIMga nisbati 1995-yildan 2024-yilgacha sezilarli o'zgarishlardan o'tgan. IMFning "World Economic Outlook / General Government Debt" statistik ma'lumotlariga ko'ra, Xitoy 2024-yilda davlat qarzining yalpi ichki mahsulotga (YaIM) nisbati 88,30 foizni tashkil etgan. 1995–2024-yillar oralig'ida Xitoyda "davlat

qarzi/YaIM" ko'rsatkichi o'rtacha 39,69 foizni tashkil etgan bo'lib, 2024-yilda u eng yuqori darajaga — 88,30 foizga chiqqan, 1997-yilda esa eng past daraja — 20,40 foiz qayd etilgan [11].

1995-yildan buyon ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy omillar ta'sirida Xitoyda davlat qarzi YaIMga nisbati bir muddat past bo'lgan, keyin esa ancha o'sib borgan.

Misol uchun:

- ❖ Qarz/YaIM nisbati 1997-yilda eng past 20,40 foiz darajasida qayd etilgan;
- ❖ O'rtacha ko'rsatkich 1995–2024-yillar oralig'ida 39,69 foizga yaqin.

Bu raqamlar Xitoyning davlat qarzini nisbatan kichikdan kattaroq hajmlarga olib chiqqan jihatlarni ko'rsatadi — ya'ni qarz darajasi so'nggi yillarda tizimli ravishda o'sib borgan [2].

Bu daraja bir qator omillarga bog'liq bo'lishi mumkin:

- ❖ Hukumatning fiskal siyosatdagi keng moliyalashtirish strategiyalari, infratuzilma loyihalari va iqtisodiy rivojlanish dasturlari;
- ❖ Mahalliy hukumat va Local Hukumat Moliyalashtirish dasturlari (LGFVs — Local Government Financing Vehicles) orqali yashirin qarzlarni qo'llash amaliyoti;
- ❖ Milliy va mahalliy budjet defitsitlari, daromadlarning o'sishi cheklanganligi;
- ❖ Qarzlarni moliyalashtirishda qimmatli kreditlar olish va tashqi emitentlar bilan ishlash.

Jahon iqtisodiyotida davlat qarzi nisbatining bunday darajalarga yetishi xavfsizlik signalini berishi mumkin — bu muvozanatsiz budjet, qarzni to'lash qobiliyatining siqilishi yoki moliyaviy stress yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Hisob-kitoblarni tahlil qilganimizda, Xitoyda davlat qarzi tarkibida uchta asosiy qism mavjud:

1. Markaziy hukumat qarzi. Ushbu qism faqat markaziy hukumat tomonidan olingan imtiyozli va oddiy qarzlarni o'z ichiga oladi. Qarz yo'llari — xazina obligatsiyalari, tashqi qarzarlar va kreditlardan iborat.

2. Qonun bilan belgilangan mahalliy hukumat qarzlar. Mahalliy hukumatlar respublikaning turli bo'g'inlarida infratuzilma va jamoat xizmatlarini moliyalashtirish uchun qonun doirasida qarzlanadi.

3. Yashirin (yopiq) mahalliy hukumat qarzlar. Bu qism rasmiy hisob-kitoblarda ko'rsatilmaydigan, ammo ma'muriy hokimiyatlar yoki mahalliy loyihalar orqali amalga oshiriladigan qarzlarni o'zida mujassamlashtiradi. Bu qarzlar "qarzdin tashqari majburiyatlar" yoki "contingent liabilities" deb ataladi.

Yashirin qarzlar ijobiy iqtisodiy rivojlanishga ta'sir qilishi mumkin, ammo ular nazoratsiz qolsa moliyaviy stress yoki budjet to'siqlarini keltirib chiqarishi ehtimoldan xoli emas. Bir tomondan, Xitoy hukumati davlat qarzini nazorat qilish va moliyaviy barqarorlikni saqlash uchun bir qator usullarni qo'llamoqda – masalan, mahalliy hukumat qarzining qayta tuzilishi, maxsus obligatsiyalar chiqarish jarayonlarini nazorat qilish va kredit bozorlarida nazoratni kuchaytirish orqali.

Xulosa va takliflar.

Jahon iqtisodiyotida davlat qarzining barqarorligi masalasi so'nggi yillarda global moliyaviy xavfsizlikning eng dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylandi. AQSh va Xitoy misolida ko'rinadiki, har ikki mamlakatning fiskal siyosati milliy iqtisodiyot barqarorligi hamda kelgusi avlodlar moliyaviy yuki nuqtayi nazaridan o'ta muhim ahamiyatga ega.

AQSh misolida, Kongress Budjet Idorasi (CVO) ma'lumotlari mamlakatdagi fiskal nomutanosiblikni yaqqol ko'rsatib bermoqda: davlat xarajatlari yalpi ichki mahsulotga (YaIM) nisbatan 2025-yildagi 23,3 foizdan 2055-yilda 26,6 foizga o'sishi kutilmoqda, daromadlar esa shu davrda 17,1 foizdan 19,3 foizga ko'tarilishi mumkin. Bu esa uzoq muddatli budjet defitsiti va qarz yukining ortib borishini anglatadi.

Milliy qarzning o'sishi asosan aholining qarishi, sog'liqni saqlash xarajatlarning

ortishi, foiz to'lovlarining ko'payishi va daromad bazasining yetarli darajada o'smasligi bilan izohlanadi. Bu omillar iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatib, mamlakatni yangi moliyaviy inqiroz xatarlariga yaqinlashtirishi mumkin.

Xitoy misolida esa, davlat qarzi bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatadiki, mamlakat iqtisodiyoti mutlaq quvvat jihatidan yuqori bo'lsa-da, moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muayyan xavflar mavjud.

Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF) ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda Xitoyning davlat qarzi YaIMga nisbatan 88,3 foizga yetgan, bu esa 1995–2024-yillar davomidagi eng yuqori ko'rsatkichdir (o'rtacha 39,69 foiz). Eng past daraja 1997-yilda 20,4 foiz qayd etilgan. Shu bilan birga, Xitoy Moliya vaziri Lan Fuan 2025-yil 12-sentabr kuni Pekin shahridagi matbuot anjumanida mamlakat qarz darajasi "oqilona me'yor doirasida" ekanini va moliyaviy xavflar "nazorat ostida" turibdi, deb ta'kidladi. Uning ma'lumotlariga ko'ra, "2024-yil yakunida davlat qarzining umumiy hajmi 92,6 trln. yuan (taxminan 13,04 trln. AQSh dollari)"ni tashkil etgan bo'lib, shundan markaziy hukumat qarzi – 34,6 trln. yuan, mahalliy hukumat qarzlar – 47,5 trln. yuan, yashirin mahalliy qarzlar esa 10,5 trln. yuan miqdorida bo'lgan.

Xitoydagi "yashirin mahalliy hukumat qarzlar" (contingent liabilities) muammosi moliyaviy barqarorlik nuqtayi nazaridan eng muhim xavf omillaridan biri hisoblanadi. Bunday majburiyatlar rasmiy hisobotlarda aks etmasligi sababli, ular iqtisodiy tizimda yashirin moliyaviy bosim keltirishi mumkin. Shu bilan birga, Xitoy hukumati so'nggi yillarda fiskal nazoratni kuchaytirish, mahalliy hukumat qarzlarini qayta tuzish, maxsus obligatsiyalar chiqarish jarayonlarini tartibga solish va budjet shaffofligini oshirish bo'yicha tizimli choralar ko'rmoqda. Bu mamlakatning fiskal barqarorlikka intilishini va moliyaviy xavflarni boshqarishdagi institutsional salohiyatini namoyon etadi.

Umuman olganda, AQSh va Xitoy tajribasi davlat qarzi muammosini hal etishda ikki xil yondashuv mavjudligini ko'rsatadi:

❖ AQShdagi asosiy muammo – strukturaviy budget defitsiti va ijtimoiy dasturlar xarajatlarining keskin o'sishi bilan bog'liq;

❖ Xitoydagi asosiy xavf – mahalliy hukumat qarzlarning yashirin o'sishi va

infratuzilmaga yuqori darajadagi davlat sarflari bilan bog'liqdir.

Ikki mamlakat tajribasi shunday xulosaga olib keladiki, fiskal barqarorlikni ta'minlash uchun qat'iy davlat siyosati, qonunchilik asosidagi hisobdorlik va moliyaviy shaffoflikni kuchaytirish zarur. Bu nafaqat iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlaydi, balki kelgusi avlodlar manfaatlarini himoya qilishda ham hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. International Monetary Fund Bulletin - <https://www.imf.org/external/datamapper/datasets/GDD>
2. International Monetary Fund. Fiscal Monitor: Putting a Lid on Public Debt. Washington, D.C.: IMF, April 2025. - <https://www.imf.org/en/Publications/FM/Issues/2025/04/23/fiscal-monitor-April-2025>
3. Reinhart C. M., Rogoff K. S. This time is different: Eight centuries of financial folly. – princeton university press, 2009.
4. Keynes J. M. The general theory of employment //The quarterly journal of economics. – 1937. – T. 51. – №. 2. – C. 209-223.
5. Krugman P. End this depression now!. – WW Norton & Company, 2012.
6. O.S. Komolov, X.X. Imomov. Davlat qarzlari boshqarish. (Darslik). – T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2022. – 8-bet.
7. A.A. Shernaev, O.S. Komolov. "Davlat qarzlari boshqarish" (Darslik). – T.: Iqtisod-moliya, 2019. – 12-bet.
8. D.X. Suyunov, E.A. Xoshimov. Korporativ boshqaruv: muammolar va zamonaviy yechimlar. Monografiya. – 218 b., 2018.
9. UNCTAD – World of Debt - <https://unctad.org/publication/world-of-debt>
10. Peter G. Peterson Foundation – Our National Debt – Short link: <https://surl.li/ljicqc>
11. Gov.cn – China's government debt ratio within reasonable range, risks controllable: finance minister - https://english.www.gov.cn/news/202509/12/content_WS68c3e821c6d00fa19f7a2641.html
12. TradingEconomics.com. China Government Debt to GDP (1995-2024) - <https://tradingeconomics.com/china/government-debt-to-gdp>